



Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim senga
fido, O'zbekistonim!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!
N:27 (67088)
2016-yil
4-iyul

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

XORAZMIY IZDOSHLARI

ilm-fan cho'qqilarini zabt etishmoqda

Ushbu sonda:

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga yuksak darajada e'tibor qaratilishi yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni puxta egallashlariga zamin yaratadi. Ingliz tili fanidan qator tanlovlarning muntazam o'tkazilishi ham ushbu maqsadlarni ko'zlaydi.

(Davomi 4-sahifada)

Hazorasp tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilari Madina Yo'ldosheva bilan Yulduzxon To'raxonovalar «Yosh naqqoshlar» to'garagining faol a'zolaridan.

TOG'LAR
BAG'RIDAGI
TA'TIL
2-bet

KITOB DAN
YAXSHI DO'ST
BO'LMAS
3-bet

Yangi qissa:
TAGOB
QISHLOQ
ERTAKLARI
6-bet



«Ingliz tili bilimdonlari - 2016» tanlovining respublika bosqichida 3-o'ringa sazovor bo'lgan hazoraspalik o'quvchilar, ustozlari Bobur Rajabov bilan.

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA» respublika ijodiy ishlar tanloviga



Nodira AMINBOYEVA,
Xorazm viloyati,
Yangibozor tumanidagi
7-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



«Baxtiyor bolalik»

«Sog'lom ona va bola»



Marjona ISMOILOVA, Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi

DIQQAT, E'LON!

«BOYLIKNI BOLALIKDAN
ASRANG!» respublika tanlovi
g'oliblari o'z diplom va
sovg'alarini olish uchun ota
yoki onasining pasport va INN
hujjatlaridan nusxa olib, gazeta
tahririyatiga kelishlarini
so'raymiz!

Qadim Turon

minglab allomalar-u buyuk mutafakkirlar,
shoirarga beshik bo'lgan makondir. O'rta asrlarda yetishib chiqqan Sharq
olimlarining matematika, fizika, kimyo, astronomiya, tarix, adabiyot, falsafa,
etnografiya, tibbiyot fanlariga oid asarlari, bebaho ma'naviy
mulkimiz hisoblanadi.

JAHON TAN OLGAN ALLOMALAR

Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati al-Xorazmiy yaratgan qoidalarga asoslanadi. Ahmad Farg'oniyning «Astronomiya asoslari» nomli asari XII asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani, uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Allomaning yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Kristofor Kolumb «Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniy hisoblari» to'g'irligiga to'la ishonch hosil qildim», deya dastxat qoldirgan. Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Dunyodagi doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik «Avitsenniya» deb atalgan.



Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar, o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan.

Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtiram, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniyga o'rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

Rustam NURMATOV

Maroqli dam - o'qishga hamdam

TOG'LAR BAG'RIDAGI TA'TIL

Purviqor tog'lar bag'ridagi «Fazogir» oromgohiga yaqinlashar ekanmiz, quvnoq musiqasadorlari, bolalarning shodon kulgisi qulog'imizga chalindi.

E'tibor Xoliqova rahbarlik qilayotgan mazkur oromgohda birinchi mavsumda 250 nafar o'g'il-qiz dam olayotgan ekan. Ular yoshlariga qarab 8 ta sayyora – guruhlarga bo'linishgan.

– Bizning 7-guruhimiz «Saturn» deb nomlanadi, – deydi tarbiyachi Hamida opa Ismoilova. – Sayyoramizga 9-10 yoshli 24 nafar o'quvchi jamlangan. Oromgohimizda bolajonlarning miriqib dam olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan.

«Yosh musavvir», «Mohir qo'llar», «Munchoqli bezak», «Raqs», sport yo'nalishidagi «Basketbol», «Shaxmat-shashka», «Tennis», «Yosh futbolchi» kabi to'garaklarda tajribali pedagog-murabbiylar faoliyat olib borishmoqda.

– Oromgohga akam bilan kelganmiz,

– deydi poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchisi Ibrohim Abdurahmonov. – Bu yer bizlarga juda yoqdi. Har kuni qiziqarli tadbirlar o'tkazilmoqda. Kecha sirk namoyishi bo'lgandi. Bugun esa yangi kinofilmi ko'rar ekanmiz.


– Menga esa, ayniqsa, hovuzda cho'milish yoqdi, – deya suhbatga qo'shildi Ibrohimning akasi, 6-sinf o'quvchisi Nurmuhammad. – Shuningdek, «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar», «Kitoblar olamida» tadbirlari, taniqli san'atkorlar bilan uchrashuvlar, raqs kechalari ham o'tkazilmoqda. Bu yerga kelib yangi do'stlar bilan tanishdim. O'tgan yili birga dam olgan o'rtoqlarimni ko'rib, rosayam quvondim.

Bir-birlariga gal bermay, quvnoq ta'til, oromgohdagi jo'shqin hayot haqida to'lqinlanib hikoya qilayotgan o'g'il-qizlarga qarab, zavqimiz oshdi. Zero, ular mustaqil O'zbekistonimizning ertangi kuni, porloq kelajagi.



Dilorom HOTAMOVA

KITOB DAN YAXSHI DO'ST BO'LMAS



«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Bosh muharriri Habib Abdiyevdan besh savolga besh javob:

Siz faoliyat ko'rsatayotgan nashriyotda chop etilayotgan badiiy asarlar haqida so'zlab bersangiz...

Bular orasidan bolalar o'qishi uchun qaysilarini tavsiya eta olasiz?

– Bolalarga mo'ljallangan kitoblar nashriga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ularga «Ming bir so'zni bilan» (bolalar uchun rasmiy izohli ug'at), «Shaxmatdan ilk saboqlar», «Yetti og'a-ini», «Mening rasmiy ensiklopediyam», «Insoniyat tarixidan lavhalar» va boshqa ko'pgina kitoblarni tavsiya etishimiz mumkin. Bu kitoblar bolajonlarimizning ma'naviy kamolotiga ulkan hissa qo'shishiga ishonamiz.



ZUBAYDA olgan suratlar

Sog'lom bola tarbiyasida kitobning o'rni qanday, deb o'ylaysiz?

– Yosh avlodning ham ma'nau, ham jismonan sog'lom ulg'ayishida o'qatlanish, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi qanchalik muhim bo'lsa, kitob ham shunchalik muhim ahamiyatga ega. Agar kishi jismoniy jihatdan sog'lom bo'lsa-yu, ma'naviyati sust bo'lsa, bu uning to'la-to'kis shaxs sifatida shakllanmaganidan darak beradi. Muhtaram Prezidentimiz ham «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» deya ma'naviy barkamollikka yuksak baho berganlar. Nazarimda, bu borada kitobdan yaxshiroq ko'makchi yo'q.

Kompyuter, uyali telefon, televizor va kitobning o'zaro munosabati borasida bolalarga qanday tavsiyalar bera olasiz?

– Bugungi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalardan bexabar, bebahra qolish yaxshi emas. Biroq hamma gap ulardan qanday maqsadda foydalanishda. Kompyuterdan ham, televizordan ham, uyali telefondan ham kerak bo'lgan joyda foydalangan ma'qul. Biror mushkulingizni oson qilgan narsadan voz kechib bo'ladimi?

Ammo kitobning o'rni alohida. U ma'naviy-ruhiy ozuqa manbaidir. Barcha zamonaviy texnika vositalarining o'ziga yarasha jismoniy zarari bor. Ulardan foydalanishda me'yorga amal qilgan ma'qul. Biroq kitobdan yaxshiroq do'stni topish mushkul. Negaki, ijtimoiy tarmoqlardan bolalar o'z tengqurlari bilan fikr almashishadi, xolos. Kitob esa dono maslahatchi. U hayotni ko'zga singari ko'z o'ngingizda namoyon etadi. Kerakli xulosalar chiqarishga, insoniy go'zal va pok tuyg'ularni anglashga, ruhan yuksalishga, ma'nau ulg'ayishga, estetik didni shakllantirish va o'stirishga xizmat qiladi. Bunday kishilar bilan suhbatlashish ham maroqli bo'ladi.

«Tong yulduzi» gazetxonlariga tilaklaringiz...

– «Tong yulduzi» gazetxonlariga, kitob muxlislariga, umuman, har bir insonga, avvalo, niyati pok, fikri ezgu bo'lishini tilayman. Zero, pok niyat, ezgu fikrlardagina ezgu amallar tug'iladi. Har kimga tani-sihatlik va xotirjamlik hamdam bo'lsin, deyman.

Shavkat KAZAKBAYEV suhbatlashdi

Bizga maktub yo'llabsiz...

Yaqinda sevimli shoirimiz Po'lat Mo'minning

«BO'LADIGAN BOLALAR»

nomli kitobini o'qib chiqdim.

Unda biz bolalarga bag'ishlab yozilgan turli mavzudagi she'rlarga keng o'rin berilgan. Shoirim «O'zbekiston», «Laylak keldi», «Bo'ladigan bolalar», «Taruuz» kabi she'rlari menga juda ham yoqdi. She'rlardan zavqlanib, o'zim ham «Tut» nomli she'r yozdim.

Juda shirin tut, Go'yo misli sut. Uni yeymiz biz, Mazza qilamiz.
Qani, tez keling, Tutga marhamat. Juda shirin deng, Ekkanga rahmat!

Sevinch AKROMOVA, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi

QUVONCH ULASHILDI

Farg'ona viloyati hokimligi va bir necha tashkilotlar hamkorligida Marg'ilon shahridagi «Istiqlol» to'yxonasida viloyatdagi kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, Mehribonlik uyalarida tarbiyalanayotgan bolalar uchun xatna to'yi o'tkazildi.

Tadbirda so'zga chiqqan mehmonlar to'ybolalarni samimiy tabriklab, ularni yurt kelajagiga munosib hissa qo'shadigan komil insonlar bo'lib yetishishlarini tiladilar.

Bolajonlarga homiy tashkilotlar tomonidan qimmatbaho sovg'alar ulashildi. To'ybolalarning har biriga bir million so'm mablag' qo'yilgan omonat daftarchalari tantanali ravishda topshirildi.

– Bizga ko'rsatilgan bu muruvvatdan boshimiz ko'kka yetdi, – deydi Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Muhammadaziz Topvoldiyev. – Shohruz Sotvoldiyev, Shohidbek Abdullalilov, Muhammadyusuf To'rayev kabi do'stlarim ham bu g'amxo'rliklardan behad xursand bo'lishdi.

To'yxonada bolalarga turli ertak, multfilm qahramonlarining chiqishlari, taniqli san'atkorlarning bolalar uchun tayyorlagan konsert dasturi namoyish etildi.

Muhammadjon MAHMUDOV

MENING ORZUM

Men 1-sinfni muvaffaqiyatli tamomladim. Ertak va she'rlarni o'qish jon-u dilim.



Oilada Abbosbek va Abrorbek ismli ukalarim bor. Bobojon va buvijonlarim, dadajonim Rasulbek bizga doim «Yaxshi o'qinglar, odobli va ahil bo'linglar», deb uqtirishadi. Kelgusida yangi-yangi rusumdagi mashinalarni ixtiro qilib, o'zimning shaxsiy mashina salonimni ochmoqchiman. Buning uchun, albatta, ko'p kitob o'qishni oldimga maqsad qilib ko'zyganman.


Zohidjon SA'DULLAYEV, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«PARVOZ»NING TA'TILDAGI PARVOZI

Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanidagi 40-DIMI qoshida «PARVOZ» oromgohi ish boshladi. O'quvchilarning yozgi mavsumni ko'ngilli o'tkazish maqsadida tashkillashtirilgan mazkur kunduzgi dam olish maskanida shahar hududidagi 1-, 2-, 24-, 28-umumta'lim maktablari va 40-DIMI o'quvchilaridan har davrada 100 nafar bolajonlar dam olishlari rejalashtirilgan.

Bu yerda dam oluvchilar uchun tuman-dagi musiqa, Bolalar va o'smirlar sport maktabi, Bolalar ijodiyot markazi tomo-

moqni kim tez topadi?», «Hisoblang» kabi shartlar bo'yicha bellashdilar. Yakunda 5-guruh a'zosi Ziyoda Mo'minova 1-, 4-guruhdan Minavvaroy Hakimova 2-, 2-guruh vakili Sarvinoz Komilova 3-o'rinni egalladi.



nidan «Rus tilini o'rganamiz», «Karving», «Mohir qo'llar» to'garaklari faoliyat yuritadi. Ayniqsa, sport to'garaklari bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan sanaladi. Maktab-internati kutubxonasi esa adabiyotlar bilan boyitilgan. Kuni kecha oromgohda «Bilimdonlar bahsi» ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Unda har bir guruhdan 9 yoshli o'quvchilardan bir nafari ishtirok etdi. Ular «O'quv malakasi», «Tez aytish», «Topish-

moqni kim tez topadi?», «Hisoblang» kabi shartlar bo'yicha bellashdilar. Yakunda 5-guruh a'zosi Ziyoda Mo'minova 1-, 4-guruhdan Minavvaroy Hakimova 2-, 2-guruh vakili Sarvinoz Komilova 3-o'rinni egalladi.

**Xurshida
SULAYMONOVA**



«OITS VA GIYOHVANDLIKKA QARSHI BIRLASHAYLIK»

Sirdaryo viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazlari to'garak a'zolari o'rtasida «OITS va giyohvandlikka qarshi birlashaylik!» mavzusiga bag'ishlab ramalar ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.



Tanlovni viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi direktori Maqsuda Sanayeva ochib berdi. Sirdaryo viloyati OITSga qarshi kurashish markazi mutaxassisi B.Rahimov o'quvchilarga OITS haqida tushuncha berib, bu xastalik inson hayoti uchun xavfli ekanligini so'zlab o'tdi.

Tanlovda barcha tumanlardan kelgan 30 nafarga yaqin o'quvchilar o'zlarining chizgan ijodiy ishlari bilan qatnashdi.

Yakunda 1-o'rinni Boyovut tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Mirolim Ismoilov, 2-o'rinni Mirzaobod tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Shohida Ergasheva, 3-o'rinni Guliston tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Nodirbek Nusratullayev qo'lga kiritdi. G'oliblar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Sunnatilla USANBOYEV

XORAZMIY Muxbir safardan qaytdi IZDOSHLARI ilm-fan cho'qqilarini zabt etishmoqda

(Davomi. Boshi 1-sahifada)

Xorazm necha ming yilliklarga guvoh ko'hna diyor. Bu zamindan ne-ne allomalar, qalami o'tkir shoirlar-u sheryurak sarkardalar o'tmadi, deysiz. Al-Xorazmiy, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Munis Xorazmiy va Ogahiy kabi dunyo tan olgan buyuklar yurti bu.

Ijodiy uchrashuvimizni viloyatning qadimgi tarixiga ega bo'lgan Hazorasap tumanidan boshladik.

Dastavval tumandagi 19-umumta'lim maktabi sari yo'l oldik. Zamon talablariga mos tarzda bunyod etilgan, barcha qulayliklarga ega bo'lgan

mazkur ma'rifat maskanining yangi binosi 2001-yilda foydalanishga topshirilgan.

– Maktabimiz respublikada eng ko'zga ko'ringan bilim maskanlaridan, – deya ochiq chehra bilan bizni qarshi oldi muassasaning

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinborsari Rohatjon Ro'zmetova. – Jumladan, «Eng obod ta'lim muassasasi – 2013» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan.

Yozgi ta'til paytida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida yoz konsepsiyasi asosida 10 dan ortiq sport, 15 dan ortiq fan to'garaklari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

15-umumta'lim maktabida 700 nafar o'g'il-qizlar tahsil olishadi. Qahramon Ibragimov rahbarligidagi mazkur ta'lim dargohida ham iqtidorli yoshlar talaygina.

«Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovida 7-sinf o'quvchisi Sarvinoz Rahmonova viloyatda 2-o'rinni, 8-sinf o'quvchisi Hafiza Otaboyeva esa 1-o'rinni egallashining o'zi ham ushbu muassasada ta'lim jarayoni qanday yo'lga qo'yilganidan darak beradi. Shuningdek, maktabning yana bir 8-sinf o'quvchisi Abdulaziz Ahmedov «Bilimlar bellashuvi»ning mamlakat bosqichida informatika fanidan 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, tumandagi 1-IDUMning 7-sinf o'quvchisi Ibrohim Nishonov fizika fanidan o'z tengqurlari orasida chuqur bilimga ega ekanligini isbotlab, 1-o'ringa loyiq topildi.

2-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Marvarid Rustamova «Bilimlar bellashuvi»ning ona tili va adabiyot fanidan viloyat bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 8-sinf o'quvchisi Sarvinoz Odilbekova respublika bosqichida mazkur fandan faxrii 2-o'rinni egalladi.

O'tmishi buyuk xalqning kelajagi ham buyuk bo'ladi, degan so'z naqadar o'rinni aytilgan. Xizmat safarimiz davomida biz yosh xorazmlik o'g'il-qizlar bilan suhbat jarayonida shunga guvoh bo'ldik.

Jamoliddin ABDULLAYEV



LESSON 94

CLEVER BOY
(Aqli bola)



A boy was bringing a dish of meal which was wrapped to his neighbor, a man met him:

– What were you bringing, my dear son, – he asked.

Clever boy answered:


– Dear father, if it were possible to say or to show to somebody this dish, it would not wrapped, but it would be opened.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

MY LEISURE TIME
(Mening bo'sh vaqtim)

- What do you do in your spare time?
– Bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'illanasiz?
- In my spare time I am fond of painting.
– Bo'sh vaqtimda men chizishni yoqtiraman.
- What are some of your hobbies?
– Sizning sevimli mashg'ulotingiz nima?




- I enjoy sports. – Men sportni yaxshi ko'raman.
- I enjoy reading. – Men mutolaa qilishni yoqtiraman.
- I enjoy music. – Men musiqani yaxshi ko'raman.
- I enjoy gardening. – Men bog'bonlik qilishni yoqtiraman.
- I enjoy dancing. – Men raqsqa tushishni yaxshi ko'raman.
- I enjoy art. – Men san'atni yaxshi ko'raman.
- I enjoy watching TV. – Men televizor ko'rishni yoqtiraman.
- I collect books. – Men kitoblar yig'aman.
- I collect pictures. – Men suratlar yig'aman.
- I collect coins. – Men tangalar to'playman.
- I have too little spare time? – Mening bo'sh vaqtim juda kam.
- I have no time. – Mening bo'sh vaqtim yo'q.

PAIRS OF OPPOSITES

Organize these words into pairs of opposites and put them in the columns below.

Mean, clever, nice, lazy, relaxed, hard-working, tense, cheerful, generous, unpleasant, stupid, miserable.



Positive

.....
.....
.....
.....

Negative

.....
.....
.....
.....

Prepared by Dinora SHAKIROVA.
Painter: YOQUBBEK

CAN AND COULD

Can va could modal fe'llari o'zbek tiliga «qila olmoq» deb tarjima qilinib, biror ishga nisbatan moyillikni bildiradi. O'tgan zamonada «Could» ishlatiladi.

For example: I can swim.

My grandfather could run fifty kilometers a day.

Biror kishidan biron bir ishni qilishni iltimos qilinganda ham Can/Could dan foydalaniladi.

For example: Can you open the door, please?

Exercise 1. Complete these sentences. Use can or can't + one of these verbs:

come find hear see speak

I'm sorry, but we **can't come** to your party next week.

She got the job because she five languages.

You are speaking very quietly. I you.

Have you seen my bag? I it.

I like this hotel room. You the mountains from the window.



Umida G'OFUR qizi

WORD SEARCH

Dear friends there are some nouns and adjectives find eighteen words:

A	N	S	C	H	O	O	L	C	R
S	E	O	G	O	L	D	B	A	K
C	W	S	L	E	A	S	Y	I	Z
O	L	O	W	D	G	O	O	D	G
L	T	A	C	C	E	P	T	P	Q
L	R	Y	S	L	I	T	T	L	E
E	A	M	F	A	S	T	R	E	D
G	I	Q	O	K	E	D	A	R	K
E	N	W	E	R	M	G	O	J	A
P	O	O	R	T	E	Y	G	H	T

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

RIDDLES
(Topishmoqlar)

We are very large though we seem small,
We float on high and never fall.
We shine like jewels in the night,
But in the day are hid from sight.



What box walks and talks?

Asal RAJABALIYEVA,
the pupil of school №31 in Tashkent region, Bekobod district

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Yoshim 85 dan oshib qoldi. Boshimdan kechirgan voqealar-u xotiralar ko'zim o'ngidan to'lqin-to'lqin bo'lib o'tganini ko'raman. Shularni bir qog'ozga tushirsam, qalay bo'larkin, deb o'ylayman. Ustoz Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertak»larini, Oybek domlaning «Bolalik» singari nodir asarlarini o'qiyman. Agar shu asarlar yozilmaganda, buyuk ustozlarimiz haqidagi tasavvurlarimiz chalaroq bo'larmidi. Bolalar yozuvchisi esdalik yozishi shartmikin, deb ikkilangan paytlarim bo'ladi. Shunda yana o'zimcha Mark Tven, Sharl Pero, Janni Rodari singari adiblar o'zlari haqida yozib, qachon yashaganliklari, qanaqa odamlar orasida bo'lganliklari, bolaligi qanday o'tganini yozib ketmaganlarida, ular haqida tasavvurlarimiz to'liq bo'lmasdi.

Men ko'proq o'zim tanigan yozuvchilar, ayniqsa, bolalar adiblari qanday qilib ijodkor bo'lgan, deb o'ylayman. Qirq yildan buyon «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha», «Qasoskning oltin boshi», «Mungli



ko'zlar», «Jannati odamlar» singari asarlarim chetlarda nashr qilinayapti. O'zimizning maktablarda ham darslik sifatida o'qitilyapti. Bular yozuvchi uchun katta baxt. Uchrashuvlarda kitobxonlar savollarga ko'mib tashlashadi.

«Sariq devni minib» asarini necha yoshdan yozgansiz? Uni yozganingizda tramvay yurarmidi? Bolaligingizda ocharchilik bo'lgan ekan, ocharchilik nima degani? «Besh bolali yigitcha» asaringizdagi Orifjon bu sizning o'zingizmi?

Goho yarim tunda ham Andijonning Marhamat, Qoraqalpog'istonning Chimboy tumanidan ham ketma-ket savollar kelaveradi. Agar ularni yoza-versam, katta bir kitob bo'lardi.

Dunyoda nima ko'p, desam, savol ko'p ekan. Ana shunday savollardan keyin xotiralarimni qaysi ohangda yozsam bo'larkin, bolalar qiziqadigan ertaknoma qilibmi yoki jiddiyoq yozsammikin, degan o'yg'a bordim. Oxiri qo'limga qalam oldim-u, ko'zimni chirt yumib, bir nafasda xayolimda 12 yoshimga qaytdim va o'sha yillardagi voqealar birin-ketin ko'z o'ngimdan o'taverdi. Demak, kitobni boshladim.

ham yashaydi. Mana shu uchta mahalla bir-biri bilan musobaqalashib yashar ekan.

Biz zo'rmiz, dalamizda bug'doy zo'r bo'ladi, der ekan bittasi.

Yana bittasi biz zo'rmiz,

«KATTA TAGOB» QISHLOG'I

To'g'ri, avval qishlog'im haqida gapirib olishim kerak ekan. Robiya onam gap boshlashdan oldin «Bismillo» degin deb o'rgatgan. «Bismillo» desang, og'zingga shayton kirmaydi, so'zlaring chalkashib ketmaydi, deb aytgan. Qishlog'imizni «Katta tagob» deyishadi. Bobolarimiz shunday deb aytishgan. Bu nomni kim qo'rgan, hech kim bilmaydi. Mevalari shunaqa ko'pki, ertapishar o'rik deysizmi, rang-barang gilos deysizmi, yesangiz shirasi tilni yoradigan uzum deysizmi, shig'il-shig'il meva tugadigan shoxdor yong'oq deysizmi, eh-he, sanab ado qilolmaymiz. Goho qishlog'imizni nega «Katta tagob» deyishgan ekan, degan xayolga boraman. Qishloq katta bo'lgani uchun katta deyilarmikin, deya o'ylayman. Endi men sizga shu qishloq qayerda joylashganini ham aytib o'tmoqchiman. Tag'in yanglishib, boshqa yoqqa ketib qolmang. Kelganingizda Karimberdi, Salimberdi, Rahimberdini so'rab o'tirmang. Xudoyberdi, deb so'rang, bu menman!

Katta tagob beshta qishloqning qoq o'rtasida joylashgan. Janнатmakon qishlog'imizni birovlar o'g'irlab ketmasin, deb Yaratgan shu beshta qishloqni qorovul qilib qo'rgan ekan. Chap tomondagi qishloqda salla o'rab, soqolini o'stirib yuradigan xo'jalar, eshonlar ko'p bo'lgani uchun u joyni Xo'ja qishloq deb atashgan ekan. Past to-



mondagi qishloqda sholi ekib, palovni ko'p yeyaverganlari uchun nomini «Oxta» qishloq, deb atashibdi. Tagobning o'ng tomonida uzumni ko'p ekib, qop-qop mayiz quritib, Qo'qon shahriga oborib, sotib-soltmay yig'lamsirab yurgan odamlar yashar va uning nomini «Nursuq» deb qo'rgan ekan.

Ana shu qishloqning chap tomonida, juda chap emas, toqqa yaqin tomonida yerlari quruq dasht bo'lgani uchun, ketmonlari yerga botmay «uf» tortib ishlaydigan odamlar yashar ekan. Shu qishloqqa negadir «Qaqir» deb nom berishgan ekan.

Men ilgari ham aytdim, bobomning qo'lida katta bo'lganman. Uning 15 ta soqoli uzun o'rtoqlari bor edi.

Qishloqda uchta mahalla, uch masjid, uchta hovuz, uchta ellik boshi, uchta imom, uchta qulog'ini cho'zib azon aytadigan muazzinlar

bog'imizda o'rik bilan uzum zo'r bo'ladi, der ekan.

Maqtanish navbati uchinchi mahallaga kelganda, ko'kragiga qo'llarini urib: «Biz hamma mahalladan zo'rmiz, bizdan chiqqan polvonlar butun dunyoni yenggan», derkan. Mahalladagi tortishuvlar mening Esonqul bobom, Qambarali bobomning aytishicha, yuz yillardan beri to'xtamas ekan. Aytuvdim-ku, qishlog'imizda bobolarim ko'p, deb, eng kattasi mana shu Esonqul bobom bo'ladi. Yoshi 90 ga borgan shu yoshida ham kurash musobaqasida hakamlik qilib, g'irrom o'ynaganlarni qulog'ining tagiga tarsaki urarkan.

– Bolalarim, bahs yanagi kuzda boshlanadi. Ota Xonboy nabirasiga yetti kun osh beradi, kurashni o'shanda davom ettiramiz, – deb hammaga javob berarkan.

(Davomi bor)

YASHASIN DIYORIMIZ



Diyonat shiorimiz, Oqibat qalb orimiz, Yashasin diyorumiz, Biz shu yurt farzandlari.

Yurtga suyanch, qarog'miz, Ezgulikka yarog'miz, Kelajagi gul bog'miz, Biz shu yurt farzandlari.

Nozliya ERGASHEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
43-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

CHAQQONQOY

Erta-saharda turib, Yuz-qo'llarini yuvib. Ko'zguga xo'p qaraydi, Sochlarini taraydi.

Onasi deydi hay-hay, Buncha go'zal Oppoqoy. O'zini orastalab, Bizga turibdi qarab.

Hovliga suv sepilsa, Ko'chalar supurilsa. Har ishdan oladi zavq, Olqishlar ko'p yog'ilsa.

Qani, choyga marhabo, Nonushta bo'ldi tayyor. Ham ozoda, ham zebo, Chaqqonoydir zo'r dastyor!

Sevinch ALIYEVA,
Toshkent shahar, Mirobod
tumanidagi 218-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

KITOB



Bilimlarga kon kitob, O'qisak nur-u oftob. Ularda jamdir xitob, Ongimiz oshar shu tob.

Bizga kitob chin o'rtoq, Avaylab, mehr-la boq. Bilimdan berar saboq, Aqlimiz charxlar shu choq.

Ruxshona HOSILBEKOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax
tumanidagi 15-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

BUZQOCHA

Sho'xligi tutib, Gorni to'q buzoq. Qo'radan chiqib, Yugurdi uzoq.

Ortidan quvlab, Shamoldek yeldim. Somonxonadan, Yetaklab keldim.

Endi to'polon, Qilmaydi shayton. Chunki bo'ynida, Bir quloq arqon.

Ra'noxon NO'MONJONOVA,
Farg'ona viloyati, Bag'dod
tumanidagi 22-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

MOHIR ESHKAKCHILAR BAHSI

Sport turlarining ichida baydarka va kanoeda eshkak eshishning o'zgacha gashti bor. Eshkakni boshqarayotgan kuchli bilak sohiblaridan epchillik ham talab etiladi.

Mazkur tur bo'yicha Toshkent viloyatida o'tkazilgan mamlakat chempionatida o'n olti yoshgacha bo'lgan sportchi yigit-qizlar ishtirok etdi.

Baydarkada 200, 500 va 1000 metr masofalarga eshkak eshish bahslarida Denis Onufiyev barcha raqiblarini dog'da qoldirdi. Kanoeda eshkak eshishda yuqorida keltirilgan masofalar bo'yicha Anton Kolomeytssev mutlaq g'olib bo'ldi.

Zarina Isroilova, Mafiza va Munavvar Akbarovalar qizlar o'rtasidagi turli masofalar bahslarida birinchi-likni qo'lga kiritib, O'zbekiston chempioni bo'lishdi.

Ulug'bek SAIDOV

Ishga ketayotib, bekatda o'rta yoshdagi chehrasi ochiq ayolga ko'zim tushdi. U uch farzandi bilan yonimga kelib o'tirdi. Ular quvonchiga sherik bo'lish maqsadida ayolni suhbatga tortdim.

OILAVIY SPORTCHILAR

– Ismim Nargiza, uy bekasiman, farzandlarim poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida tahsil oladi. O'g'illarim Tohirjon va Usmonjonlar o'zlari o'qiydigan o'quv maskanida faoliyat ko'rsatadigan, Bobir Mahmudov rahbarlik qiladigan taekvando to'garagi mashg'ulotlariga, qizim Xadicha esa shu tumandagi 97-umumta'lim maktabidagi Noila Rustamova ustozlik qiladigan badiiy gimnastika to'garagiga qatnashadi. Biz hozir



274-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Yulduzcha» sog'lomlashtirish oromgohidagi tadbirda ishtirok etib qaytayapmiz. Xursandchiligim boisi, yaqinda Tohirjon Toshkent shahar Taekvando ITF Federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni, Usmonjon esa 2-o'rinni egalladilar. Qizim Xadicha Badiiy gimnastika bo'yicha «Nafis qizlar» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, 2-o'rin sohibasi bo'ldi.

Ularni tabriklar ekanman, bugungi imkoniyatlardan, e'tibordan cheksiz minnatdor ekanliklarini angladim.

Gulchehra KARIMOVA

Xabaringiz bor, shu yilning 5-sentyabr – 2-oktyabr kunlari Hindistonda futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida Osiyo chempionati start oladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur musobaqaning yarim finaliga qadar yetib kelgan eng kuchli 4 ta terma jamoa jahon chempionatida Osiyo mintaqasi sharafini himoya qilish huquqini qo'lga kiritadi.

TAYYORGARLIK AVJIDA

Shu bois, ushbu nufuzli turnirga Temur Olimxo'jayev boshchiligidagi O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi ham jiddiy hozirlik ko'rmoqda. Ayniqsa, Yevropaning kuchli terma jamoalari bilan o'tkazilayotgan o'rtoqlik uchrashuvlari futbolchilarimiz uchun o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'tayotir.

Yaqinda terma jamoamiz Belarus poytaxti Minsk

ning tezkor hujumlari bilan raqiblarini ancha shoshirib qo'yishdi. Dastlab hisobni terma jamoamizning yetakchi futbolchilaridan biri Asad Sobirjonov ochdi. Keyinchalik hujumga yanada zo'r bergan futbolchilarimiz ikkinchi to'pni kiritib, o'rtadagi farqni yana bittaga oshirishdi. Bugal raqib darvozasini chiroyli tarzda ishg'ol qilgan futbolchimiz Abubakr Mo'ydinov bo'ldi. Vakillarimizning gollariga maydon egalari faqat bitta to'p bilangina javob qaytara olishdi, xolos. Shunday qilib, o'yin 2:1 hisobida o'smirlarimiz g'alabasi bilan yakunlandi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Osiyo chempionati final bosqichiga tashlangan qur'a natijasiga ko'ra KXDR, Tailand hamda Yaman jamoalari bilan bir guruhdan o'rin olgan.

Olimxo'jayev shogirdlari turnimi 17-sentyabr kuni Tailandga qarshi o'yin bilan boshlaydi. 20-sentyabrda Yaman va 23-sentyabr kuni esa KXDR-ga qarshi maydonga tushadi.

YUTUQLAR TALAYGINA

Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning voleybol, belbog'li kurash hamda yengil va og'ir atletika turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Joriy yil baliqchilik sportchilarning erishgan zafarlari talaygina.

2016-yilning 27–30-aprel kunlari Jizzax shahrida bo'lib o'tgan Respublika ochiq birinчилигida Ziyoda Rasulova 1-o'rinni egallagan bo'lsa, xud-di shu sanada Navoiy shahrida o'tkazilgan og'ir atletika bo'yicha mamlakat chempionatida 58 kg vaznda Husnora Xabirova 1-, Laylo Rasulova 48 kg vaznda 2-, Musharraf Madaminova 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 20–24-may kunlari Xorazmda bo'lib o'tgan respublika birinчилигida Madina Mamasoliyeva og'ir atletika bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Ustoz Hamidqul Madazimov o'quvchilari yutuqlaridan mamnun.

Belbog'li kurash bo'yicha Iroda Bulturova 22–24-aprel kunlari Xorazmda bo'lib o'tgan respublika birinчилигida 44 kg vaznda 1-o'rin, Dilhavas Sadriddinova 52 kg vazn toifasida 2-o'rinni egalladi.

Ayni ta'til davrida ushbu bolalar va o'smirlar sport maktabidagi mashg'ulotlarga qatnayotgan yosh sportsevarlar safi yanada kengaydi.

Sa'dullo TURSINOV

Sh. G'ULOMOV



shahrida navbatdagi o'quv-yig'in mashg'ulotini o'tkazdi. Unda yosh futbolchilarimiz beloruslik tengqurlariga qarshi ikkita o'rtoqlik o'yinida maydonga tushdi. Dastlabki bahsda Temur Olimxo'jayev shogirdlariga biroz omad yetishmadi va ular raqiblariga 2:1 hisobida mag'lub bo'ldi.

Ikkinchi bahsda esa futbolchilarimiz o'zlarining haqiqiy kuchini namoyish etib, o'yinni o'z foydalariga hal etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahs teng kurashlar ostida boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik yosh charm to'p ustalarimiz o'zlari-

O'YLAB KO'RING, BOLALAR



Bilolda bor 10 ta gul, Sovg'a qildi uchtasin. Bilolda 10 ta guldin, Top-chi, qoldi nechtasini?

O'ylab ko'ring, bolalar, Zarnigorda 2 ta to'p. Qo'shnisi Zulayhoda, Undan 2 marta ko'p.



Sanobarning 10 qushi, Zarifadan 5 ta kam. Zarifaning qushlari, Nechta bo'lar bo'lsa jam?



Iroda RAHMONTALIYEVA, Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi

YO'QBEBEK chizgan rasmlar

Dadam mashinani darvozadan yo'lakka olib kirar ekanlar, gapirib qoldilar:

– Ko'chamizga buriладigan joy o'yilib, chuqur-cha bo'lib qolibdi, har safar mashina shu chuqurga tushib ketyapti.

– Ha, ehtiyot bo'lib o'ting-da, – deydi oyim oshxonadan chiqib.

– Ehtiyot-ku bo'layapman, – dedi dadam kuyunib, – baribir yomon-da. Ertaga yog'ingarchilik bo'lsa, yo'lovchilarga jabr bo'ladi.

Ular shunday deb kiyimlarini almashtirgani xonaga kirib ketdi.

Ertasi kuni maktabdan kela turib o'sha chuqurga razm soldim. Haqiqatan ham ikki-uch chelak tuproq bilan to'ldirsa, chuqur-cha tekislanarkan.


Uyga kelib kiyimlarimni almashtirdim-da, tushlik qilib oldim. Keyin yerto'laga tushib, eski chelak bilan belkurakni olib chiqdim. So'ngra o'rtog'im Rahimning uyiga yo'l oldim. Do'stimni chaqirsam uyda ekan. Ovozimni eshitib, Rahimning oyisi ayvon derazasini ochib qaradi:

– Abduazimboy, kelaver,

tinchlikmi?

– Ha, xolajon, tinchlik, – ko'chamiz oldidagi chuqurni to'ldirib qo'ymoqchi edim.

Abdulhay NOSIR



(Hikoya)

TASHABBUS

parchalarini solib, ustidan tuproq to'kib tekisladik.


Endi o'tgan-ketgan mashinalar chuqurga tushib silkinmaydi. Dadam ham bu ishimizdan rosa xursand bo'ladilar.

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

ZEHNINGNI SINA

18 ta gugurt donasidan ikkitasining joyini shunday almashtiringki, natijada sakkizta uchburchak o'rniga oltita uchburchak hosil bo'lsin.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV



SHIRIN QALAMCHALAR

Aziz kichik bekalar, ta'til kunlarida vaqtingiz bemaol bo'lgani uchun sizga bugun shirinlik tayyorlashni o'rgatmoqchimiz. Bu shirinligimiz sizlarga, oila a'zolaringizga manzur bo'lishiga ishonamiz.

Pazanda qizga!



Kerakli masalliqlar: 250 gramm margarin, 1,5 stakan un, 0,5 stakan qaymoq, yarim choyqoshiq iste'mol sodasi.

Nachinkasiga: 1 banka quyultirilgan iris suti.

Tayyorlanishi: dastlab xona haroratida yumshatilgan margarin qirg'ichdan o'tkaziladi. So'ngra un qo'shilib, uvalanadi. Alohida idishda qaymoq, iste'mol sodasi solib aralashiriladi. Qaymoqli aralashmani margarinli unga qo'shib,

yumshoq xamir qoriladi va yong'oqdek zuvalachalarga bo'linib, muzlatgichga 1 soatga qo'yiladi. Tingan xamirni yoyib, ichiga 1 choyqoshiqdan quyultirilgan iris suti solib, chetlari yaxshilab yopilgan holda uzunchoq qilib o'raladi. 180° darajagacha qizigan gaz pechida past olovda 20-25 daqiqa davomida pishiriladi.

Tayyor qalamchalar likopchalarga solinib, ustidan shakar kukuni sepiladi va dasturxonaga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

«OROLLAR» BOSHQOTIRMASI

1		O			
2		R			
3		O			
4		L			
5		L			
6		A			
7		R			

1. O'rta Yer dengizidagi orol.
2. Italiyaga qarashli O'rta Yer dengizidagi orol.
3. Malayya arxipelagining sharqiy qismidagi orollar.
4. Dengiz bilan nomdosh Malayya arxipelagidagi orol.
5. Davlat bilan nomdosh Tinch okeanidagi orollar.
6. Osiyoning sharqiy qirg'oqlaridagi orollar.
7. Tinch okeanidagi 1000 ga yaqin orollar, Mikroneziyada.

Tuzuvchi: Nodirbek YO'LDOSHEV

8

4-iyul 2016

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir GANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALLOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 27721 Buyurtma - S 6396

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08